


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ
IJTIMOIY
FANLAR
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК

ORIENTAL
JOURNAL
OF SOCIAL
SCIENCES



ISSN 2181-2829

2025





SOME REFLECTIONS ON THE STATE POLICY AIMED AT DEVELOPING ETHNOTOURISM IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Mirzohid Askarov

*Tashkent State University of Oriental Studies
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)
in Historical Sciences
Tashken, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ethnotourism, Uzbektourism, national cultural heritage, tourism infrastructure, local population participation, cultural tour-ism, international experience.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: This article examines the main directions of state policy aimed at developing ethno-tourism in Uzbekistan, including ongoing programs and the results achieved through them. It discusses the preservation of national cultural heritage, promotion of the culture of various ethnic groups, and the conditions created to develop tourism. The importance of involving local communities, improving infrastructure, and utilizing international experiences in promoting ethno-tourism is highlighted. The article also includes proposals to enhance Uzbekistan's competitiveness in the tourism sector.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Mirzohid Askarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Etnoturizm, O'zbekturizm, milliy madaniy meros, turizm infratuzilmasi, mahalliy aholi ishtiroki, madaniy turizm, xalqaro tajriba.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida etnoturizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, amalga oshirilayotgan dasturlar va ular orqali erishilayotgan natijalar tahlil qilinadi. Milliy madaniy merosni asrab-avaylash, turli etnik guruhlarining madaniyatini targ'ib qilish va turizmni rivojlantirish uchun yaratilayotgan sharoitlar muhokama qilinadi. Shuningdek, etnoturizmni rivoj-lantirishda mahalliy

aholini jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash va xalqaro tajribani qo'llashning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Maqola O'zbekistonning turizm sohasida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflarni ham o'z ichiga oladi.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ, НАПРАВЛЕННОЙ НА РАЗВИТИЕ ЭТНОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Мирзохид Асқаров

Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения

Доктор философии (PhD) по истории

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Этнотуризм, национальное туристическая инфраструктура, участие местного населения, культурный туризм, международный опыт.	Аннотация:	В данной статье анализируются основные направления государственной политики, направленной на развитие этнотуризма в Узбекистане, реализуемые программы и достигнутые результаты. Обсуждаются меры по сохранению национального культурного наследия, продвижению культуры различных этнических групп и созданию условий для развития туризма. Также рассматриваются важность привлечения местного населения к развитию этнотуризма, улучшение инфраструктуры и применение международного опыта. Статья включает предложения по повышению конкурентоспособности Узбекистана в туристической сфере.
------------------------	---	-------------------	--

O'zbekiston boy madaniy merosi, ko'p asrlik tarixiy obidalari va etnik xilma-xilligi bilan ajralib turadigan davlatdir. Bu jihatlar mamlakatda turizmning rivoji uchun katta salohiyatni taqdim etadi. Turizmning nisbatan yangi yo'nalishi bo'lgan etnoturizm O'zbekistonning dunyodagi o'rne va jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu maqolada etnoturizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va natijalari tahlil qilinadi.

Etnoturizm – bu sayyohlarni milliy madaniyat, an'ana va urf-odatlar bilan tanishtirishga qaratilgan turizm turi. O'zbekistonda bu yo'nalishning rivojlanishi mahalliy xalqning madaniy merosini dunyoga tanitish, turizm orqali iqtisodiy daromadni oshirish va qishloq hududlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda etnoturizmni rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, madaniy merosni asrash va targ'ib qilish, tarixiy va madaniy obidalarni

restavratsiya qilish, muzeylar va ko'rgazmalarni tashkil etish; infratuzilmani rivojlantirish, ya'ni qishloq hududlarida turistik majmualar qurish va yo'l-transport tizimlarini yaxshilash; mahalliy aholini jalb qilish orqali xalq hunarmandchiligi va milliy oshxonani rivojlantirish; xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, etnoturizm bo'yicha tajriba almashish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda etnoturizmning rivojlantirilishi bo'yicha bir qator amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyatida qadimiy Hunarmandlar qishlog'ining sayyohlar uchun qayta tiklanishi, Samarqand va Buxoro shaharlarida milliy festival va tadbirlarning tashkil etilishi, Qoraqalpog'istondagi Ajiniyoz va Moynoq hududlarida etnoturistik yo'nalishlarni rivojlantirish bunga yorqin misoldir. (S., 2020)

Etnoturizm O'zbekistonning turizm sohasidagi nisbatan yangi, ammo istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Uni rivojlantirish orqali mamlakat nafaqat iqtisodiy daromadga erishadi, balki o'zining boy madaniy merosini dunyoga namoyish etadi. Kelajakda mahalliy aholi va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus grant va imtiyozlarni joriy etish, etnoturizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba asosida maxsus dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, turistlar uchun qishloq turizmini ommalashtirish va ekologik toza muhitni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, etnoturizmning rivoji O'zbekistonni xalqaro turizm xaritasida yetakchi davlatlardan biriga aylantirish uchun muhim qadamdir.

Mustaqil davlat sifatida xalqaro standartlarga javob beradigan turizm industriyasi hamda infratuzilmasini barpo etish uchun xalqaro me'yorlarga javob beradigan tartib-qoidalarini ishlab chiqish maqsadida hukumat ushbu sohaning ehtiyoj, talab va takliflarni o'rganish natijasida 1992-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur PF-447-sonli Farmon xalqaro standartlarga mos milliy sayyohlik tizimini yaratish, turizm industriyasi infratuzilmasini rivojlantirish, jahon turizm bozoriga chiqish, sohani boshqarishni takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Farmonning 1-bandiga ko'ra, Respublika kasaba uyushmalariga qarashli turizm va ekskursiyalar kengashi, xalqaro yoshlar turizmi bo'yicha "Sputnik" byurosining "Intur-Toj" qo'shma korxonasi, O'zbekiston Vazirlar Kengashi qoshida "Sayyoh-Intur" xo'jalik birlashmasining davlat chet el turizmi komiteti korxonalari asosida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi barpo etildi. Tashkilot faoliyati tavsifi berilgan 2-bandga ko'ra tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash, chet el sarmoyalarni jalb qilish yo'li bilan zamonaviy sayyohlik

komplekslarni barpo etish, turizm tarmoqlari uchun yetuk kadrlarni tayyorlash, yangi sayyohlik marshrutlar va xizmatlarni joriy etish kabi funksiyalari belgilandi. (M.T., 2019.)

O'zbekistonda mustaqillikning dastlaki yillarida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil etilishi va uning huquqiy asoslari ishlab chiqilishi natijasida sohada jahon turizmi rivojlanishi tajribasini o'rganish hamda o'lkada sayyohlikning tarixiy ildizlari mavjudligini hisobga olib, milliy turizmning o'ziga xos milliy modeli yaratila boshlandi. Turizmning davlat tomonidan boshqarilishi asosida markaziy va hududiy bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Xususiy-lashtirishgacha bo'lgan davrda, ya'ni milliy turizm modelini yaratish bo'yicha boshlangan islohotlar tufayli 1993 – 1994-yillarda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tarkibiga kiruvchi jami 20 turdagi 159 ta korxona, tashkilot va muassasalar soha faoliyatini tashkil etishda asosiy rol o'ynagan. (M.III., 2020.) "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyatining dastlabki yillarida uning ustavida belgilangan vazifalaridan biri kadrlar masalasi ham jiddiy muammolardan biri bo'lib, bu borada viloyat boshqarmalarida malakali mutaxassis kadrlar yetishmagan.

1993-yilda "O'zbekturizm"ning viloyatlardagi hududiy bo'limlarida jami 83 ta tashkilot faoliyat ko'rsatgan. Ulardagi jami 2686 ta shtatdan 2348 tasi band bo'lsa, shundan 338 tasi kadrlar yo'qligi sabab bo'sh turgan edi. Bu borada dastlabki davrda tashkil etilgan Markaziy Osiyo turizm instituti (SITE), Iqtisodiyot universiteti bilan ikkinchi mutaxassislik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash to'g'risida shartnoma imzolanishi bilan bir vaqtda o'rta bo'g'inda ishlaydigan kadrlar masalasida yangi talab va takliflar hukumatga taqdim etilgan. Turizm tashkilotlarida sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ta'minotchisi o'rta bo'g'indagi mutaxassis kadrlar ekanligini hisobga olsak, bu borada malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash mazkur davrning dolzarb masalalaridan bir edi. (B., 2021)

1995-2000-yillarda Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimiy shaharlarda madaniy merosni asrash, madaniy meros yodgorliklaridan turizmni rivojlantirish uchun yanada samarali foydalanish, zamonaviy turizm infratuzilmasini barpo etish kabi tadbirlarni o'z ichiga olgan "Meros" dasturi 1995-yil avgustda ishlab chiqildi. Bularning barchasi xalqaro va ichki sayyohlar sonining o'sishiga ta'sir qildi. Shu bilan bir qatorda, "O'zbekturizm" MK "O'zbekiston havo yo'llari" kompaniyasining reyslari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lgan mamlakatlarning (Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bahrayn, Bangkok, BAA, Malayziya, Germaniya, Angliya, Gretsiya, Isroil, AQSH) markaziy shaharlarida vakolatxonalar ochish orqali xorijiy turoperatorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatdi. (P., 2019.)

Shuningdek, O'zbekistonda turizmning tashkiliy asoslarini yaratishda Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25 sentabrdagi 335-sonli qarorining ham ma'lum darajada o'rni bor.

Hujjat asosida, Tashqi ishlar vazirligi huzurida Madaniyat, fan va sayyohlik tizimida xalqaro hamkorlik boshqarmasi tuzildi. Boshqarmaga xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan respublikadagi vazirlik hamda tashkilotlarning sayyohlik, madaniyat va fan sohasidagi aloqalarini rivojlantirish vazifalari belgilandi.

Bundan tashqari, turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarining yaxshilanishi ham katta ahamiyatga ega. Sohaning mazkur yo'nalishini tartibga solishda 1998-yil 12-yanvardagi 389-sonli "O'zbe-kiston Respublikasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" hujjati muhim rol o'ynaydi. Ushbu mehmonxona xizmatlari ko'rsatish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishi bilan ishlab chiqilgan bo'lib, idoraviy bo'ysunish toifasi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha turdagi mehmonxonalarga joriy etildi.

Mazkur qoidalarga ko'ra, ish rejimi, ro'yxatdan o'tkazish, band qilish tartibi, muhandislik tizimlari va uskunalari bilan jihozlanishi, majburiyatlar, mehmonxona fuqarolarning yashash joyidan qat'iy nazar, xususiy tadbirkor bilan kelishilgan muddatga (45 kundan ortiq bo'lmagan) vaqtincha yashashi joyi, tranzit vizasi bo'lgan xorijliklarga 72 soatgacha vaqtinchalik yashashga ruxsat berilishi, chet el fuqarolarining ro'yxatga olish muddati uch oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi, mehmonxonalarda chet el fuqarolarini qabul qilish huquqi uchun ruxsatnoma bo'lishi, mehmonxonadagi xonalar yoki joylar fuqarolarga pasport, harbiy xizmatchilarga-harbiy guvohnoma ko'rsatilganda berilishi kabi jahon standartlariga javob beradigan tartib va qoidalar butun respublika hududidagi mehmonxonalar uchun majburiy ekanligi belgilandi.

Mamlakatda sayyohlik sohasi rivojini jadallashtirish va boshqaruv jihatdan takomillashtirish, turizm xizmatlari bozorida kichik va o'rta sayyohlik tashkilotlarining ishtirokini kuchaytirish, chet ellik investorlarni turizm sohasidagi faoliyatga keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 8-avgustda 346-sonli "Turizm tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Unga ko'ra, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga a'zo sifatida yangi tuzilma Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasini (XSTU) tashkil etildi. Ushbu tashkilot zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, a'zo bo'lgan xususiy sayyohlik tashkilotlariga axborot, maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish kabi vazifalarni bajarishi belgilandi.

Turizm butun dunyoda keng ko'lamda rivojlanib bormoqda, rivojlanish sari u yangi yo'nalishlar va sayyohlik joylari bilan boyib bormoqda. Shu bilan birga, turizm foydali soha sifatida nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni jonlantirish va modernizatsiya qilishning ma'lum bir mexanizmi sifatida hayotimizdan o'rin olmoqda. Madaniyatning globallasuvi va

baynalmilallashuvi sharoitida turli xalqlarning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash, rivojlantirish va qayta tiklash muammolari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning mohiyatan izlanuvchan va bilimga intilish kabi fazilatlari uning ajralmas xususiyatidir. Turizmning insonparvarlik ahamiyati uning imkoniyatlaridan shaxsni rivojlantirish, ijodiy salohiyatini oshirish, bilim ko'nikmasini kengaytirish va ma'naviy sohani boyitish uchun foydalanishdadir.

Turizm sizga dam olishni boshqa xalqning turmush tarzi, tarixi va madaniyati haqidagi bilimlar bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishga imkon beradi. Dunyoni o'z ko'zi bilan ko'rish, o'rganish, eshitish, boshqa xalqlar madaniyatining o'ziga xosligini his qilish turizmning tiklash funksiyasining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ular katta gumanitar salohiyatga egaligi bilan ajralib turadi. (B., 2021)

Boshqa davlat yoki mintaqaning turmush tarzi, urf-odatlarini bilan tanishish insonning ma'naviy dunyo qarashini boyitadi. Madaniyat xalq mustaqilligi, suvereniteti va o'zligini rivojlantirish, saqlash, mustahkamlash jarayonining asosidir. YuNESKO pozitsiyasiga ko'ra, turizm madaniy-gumanitar rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, "madaniyatlar o'rtasidagi muloqot"ni o'rnatish orqali tinchlikni saqlash va xalqlarni yaqinlashtirishga hissa qo'shadi.

2003-yil 17-oktabrda Moddiy va madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya qabul qilingan. YUNESKO, YUNVTO va Ummon Sultonligi hamkorligida 2017-yil 12-dekabrda YuNESKO, Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) vakillari tomonidan imzolangan ikki kunlik Jahon turizm va madaniyat konferensiyasi turizmni rivojlan-tirishdagi muhim voqea bo'ldi. Barqaror rivojlanishga ko'maklashish maqsadida turli delegatsiyalar, xususi sektor, mahalliy hamjamiyat va Turizm va madaniyat bo'yicha Muskat deklaratsiyasi NNT tashkil etildi.

Deklaratsiya doirasida turli mamlakatlardan 30 ga yaqin turizm va madaniyat vazirlari va o'rinbosarlari, shuningdek, 70 ta davlatdan 800 nafar ishtirokchi turizm va madaniyat sinergiyasini mustahkamlash va madaniy turizmning 2030 yilga qadar qo'shadigan hissasini rag'batlantirishga sodiq ekanliklarini tasdiqladilar. O'zbekiston boshqa davlatlar qatori madaniy turizmni ham faol rivojlantirishga intilmoqda. Deklaratsiya nafaqat mahalliy hamjamiyat-larning imkoniyatlarini kengaytiradigan, balki barqaror rivojlanishni, mezbon-mehmonning o'zaro hamkorligini va madaniy almashinuvni ta'minlovchi innovatsion yangi turizm modellaridan foydalanadigan madaniy turizm siyosatini shakllantirishga qaratilgan.

Deklaratsiya barqaror madaniy turizmni va madaniy merosni himoya qilishni milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimlariga integratsiyalashuviga yordam beradi. Deklaratsiya

1972-yildagi Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi YUNESKO Konvensiyasi va 2005-yilgi Madaniy ifodalarning xilma-xilligini muhofaza qilish va rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiyalariga asoslanadi.

Insoniy qadriyatlar – nafaqat turli davlatlar, balki bir davlat chegaralarida yashovchi xalqlar o'rtasidagi tinchlik, o'zaro tushunish va o'zaro hurmat – bular muhim ijtimoiy ustuvorliklar va turizmni oziqlantirib, rivojlantiradigan unumdor zamindir.

Turizmning bir toifadan ikkinchi toifaga o'tishi turizmning bir qancha soha va hududlarga tarmoqlanishi jarayonining boshlanishi bo'lib, etnografik turizmning rivojlanishiga hissa qo'shdi. O'z-o'zini anglash va atrofdagi dunyoni bilish, shaxsiy rivojlanish va maqsadlarga erishishni madaniyat sohasidagi bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "An'anaviy xalq madaniyati" tushunchasi etnik taraqqiyotning asrlar davomida shakllangan xalq amaliy san'atining turli shakllariga nisbatan qo'llaniladi. An'anaviy madaniyatning ko'plab unsurlari yo'qolib borayotgan bugungi kunda uni ilmiy o'rganish va ommalashtirish zarurati shubhasiz ko'rinadi. Xalq madaniyatini o'rganish maqsadida etnik turizm madaniy qadriyatlarga, jumladan, ko'plab tarix, arxitektura, adabiyot, arxeologiya yodgorliklariga, shuningdek, sayyohlarning bo'lish dasturiga kiritilgan kichik tarixiy shaharlar bayramlar, festivallar, xalq sayillari va boshqalarda ishtirok etish va qishloq aholi punktlariga cheksiz qiziqishga asoslanadi. (A., 2018.)

Etnografik turizm zamonaviy O'zbekistonda turizm biznesining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. U o'tmishni, milliy madaniyatni va uning bugunini tushunish uchun muhim bo'lgan va ma'lum bir guruh odamlarning madaniy o'ziga xosligini namoyish etish imkonini beradigan joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Bu shunchaki milliy bayramlar va festivallarda qatnashish emas. Etnografik turizmning maqsadi - muayyan millat, elatning turmush tarzi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir. Etnoturizm xalq hayotini "ichkaridan" ko'rish va o'rganish – uning tarixi, urf-odatlar, marosimlari, tili va afsonalarini his qilish, yashash va o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday turizmning asosiy tamoyili "zarar qilmaslik", tabiiy, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni saqlash, uni mamlakat ichida ham, undan tashqarida ham targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Etnografik turizm ko'pincha mahalliy xalqlarning an'anaviy yashash va iqtisodiy faoliyat joylarida tashkil etilib, an'anaviy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasidir.

Masalan, 2018-yil 19-maydagi "2018-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosi doirasida tashkil etilgan tadbirda xalqimizning hunarmandchilik salohiyati, boy anana va urf odatlari namoyish etildi. (Болтабаев М.Р. Тухлиев И.С. Сафаров Б.Ш. Абдухамидов С.А. , 2018)

Festival doirasida “Buxoro milliy hunarmandchiligi maktablarining mahorat namoyishlari, jumladan, “Poyi kalon” majmuasida G‘ijduvon kulolchiligi maktabi, “Toqi Zargaron”, “Nodir devonbegi” madrasasida Buxoro mis kandakorlik maktabining, “Nodir devon begi” madrasasi, “Sovg‘a” zardo‘zlik markazi, “Zardo‘zlik fabrikasi”ning Buxoro zardo‘zchilik maktabi mahorat darslari tashkil etiladi. Shuningdek, ipak gilamchilik markazi ipak gilam to‘qish jarayoni, Buxoro temirchilik maktabi “Abdulazizxon”, “Ko‘kaldosh” madrasalarida esa Shofirkon kashtachilik maktabi mahorat darslari namoyish etildi. Bir oz harakat bilan shahar ajoyib sayyohlik brendiga aylanib ulgurgan. O‘z yoshiga ko‘ra, Ipak yo‘li hududida joylashgan Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib ayatganda, etnoturizm O‘zbekistonda turizm sohasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatning boy madaniy merosi va etnik xilma-xilligini dunyoga tanitishda muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan etnoturizmni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, jumladan, madaniy merosni asrash, infratuzilmani yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mahalliy aholini jarayonga jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ushbu sohaning tez sur‘atlarda rivojlanishini ta‘minlamoqda.

Kelgusida etnoturizmni yanada rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan samarali foydalanish, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va qishloq turizmini ommalashtirish zarur. Shu bilan birga, turistlar uchun qulay sharoitlarni yaratish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Umuman olganda, etnoturizmni rivojlantirish O‘zbekistonning xalqaro turizm maydonidagi raqobat-bardoshligini oshirish bilan birga, milliy madaniy merosni asrab-avaylash va iqtisodiy farovonlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltayeva A. Exploring Cultural and Ethnic Tourism in the Aral Sea Region. 2016, Journal of Central Asian Tourism, pp. 11(2), 62-78.
2. Gulyamov B. Heritage, Museums, and Ethnotourism: Uzbekistan’s Growing Attraction. 2021, Journal of Tourism Research, pp. 14(4), 50-66.
3. Абдимўминов О. Муллаев А. XX асрнинг 80-90 йилларида Ўзбекистон таърихий-маданий меросининг халқаро тарғиб этилиши. Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш тарихи: Илмий тўплам. Тошкент, 2018, pp. – В. 183-187.
4. Болтабаев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Тошкент, 2018. pp. – В. 154.
5. Алиева М.Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари(Ўзбекистон Республикаси мисолида). –

Тошкент, 2019. pp. – Б. 78.

6. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.

7 . Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). Science and innovation, 3(Special Issue 46), 507-510.